

## XORIJUY TADQIQOTLARDA YASSAVIYA TARIQATI ALLOMALARI VA ULARNI ILMIY MEROSINI O'RGANILISHI

Abdurasulov Shahzod

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” yo‘nalishi 2-kurs magistranti  
abdurasulovshahzod944@gmail.com 94 602 2399*

XX asrga kelib, islom olami va jahon falsafiy tafakkurining rivojiga katta hissa qo‘shib kelgan tasavvuf ta’limoti va ayniqsa, uning rang-barang falsafasi Sharq va G‘arb sharqshunos, islomshunos olimlarining diqqatini o‘ziga jalg etdi. Xorijda Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomalari va ularning ilmiy merosi bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, g‘arbdan Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarni o‘rganish bo‘yicha jiddiy tadqiqot olib borgan sharqshunoslari bisyor. Bulardan eng taniqlisi ingliz olimlari Nikolsson<sup>36</sup> va Arberri<sup>37</sup>, fransuz olimi L. Massinon<sup>38</sup>, nemis olimi T. Nyoldeke<sup>39</sup> va nemis olimasi Anna Mariya Shimmel<sup>40</sup>, M.T.Stepanyans, V. Jukovskiy, Ivanov, R. Arnold kabi sharqshunos olimlarning tasavvufni to‘g‘ri tushungan holda qilgan jiddiy ilmiy ishlari ahamiyatga molikdir.

Sharqda tasavvufni quyidagi olimlar o‘rganganlar: N. Zarrinkub<sup>41</sup>, Inoyatxon, Djavad Nurbaxsh, Idris Shox, R.N.Nosirov, Sajjodii Sa‘id Ja‘far, Saljuk Eroydin, Ahmad al Naqshbandiy al Xolidiy, yapon olimi T. Izosu va boshqalardir. Bular tasavvufning asl mohiyati haqida fikr yuritib, Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlariga ham alohida e’tibor bergenlar.

Ahmad Yassaviy va yassaviya tariqati to‘g‘risida Jon Spenser Trimingham<sup>42</sup>, Devin Deves<sup>43</sup>, Terri Zarkon<sup>44</sup> kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida tahlil qilishgan.

Ingliz sharqshunosi Reynold Alleyne Nikolson<sup>45</sup> islom tasavvufshunosligida tadqiqot olib borgan dastlabki olimlardan edi. R. A. Nikolson tasavvuf tariqatlari bilan bir qatorda islom adabiyotiga ham befarq bo‘limgan. Xususan, olim Jaloliddin Rumiy

<sup>36</sup>Elektron manba: <https://www.britannica.com/biography/Reynold-Alleyne-Nicholson>

<sup>37</sup>Arberry A.J. Sufism. – London: 1950.

<sup>38</sup>Крачковский И. Ю., Бартольд В. В., Ольденбург С. Ф. Записка об учёных трудах Луи Массиньона. // «Известия Российской академии наук. VI серия». – Ташкент: — 1924. — С. 18.

<sup>39</sup>Нельдеке, Теодор // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

<sup>40</sup>Elektron manba: <https://www.livelib.ru/author/352369-anne-mari-shimmel>

<sup>41</sup>N. Zarrinkub. So‘fiylar merosining qadri. 1963. Yirik monografiya umumiyl xarakterga ega bo‘lib, islom tasavvufini Eron sharqshunoslik maktabi nuqtai nazaridan o‘rganish sohasidagi jahon ilm-fanining so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirgan.

<sup>42</sup>Trimingham Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с.

<sup>43</sup>Devin DeWeese . Studies on Sufism in Central Asia. – London and New York, 2012. 57 p.

<sup>44</sup>Zarcone T. Turkish Sufism in India: The Case of the Yasawiyia. In, Confluence of Cultures. French Contributions to Indo-Persian Studies.

Pp.82-92. Monohar. Centre for Human Sciences, New Delhi. 1995

<sup>45</sup>Ingliz sharqshunosi Reynold Alleyne Nikolson 1868-yili 18-avgustda Angliyaning Yorkshir shahrida tug‘ilgan. R. A. Nikolson islom adabiyoti va islom tasavvufining yetakchi olimi hisoblanib, uzoq vaqt davomida islomshunoslik sohasiga katta hissa qo‘shgan, qolaversa, Jaloliddin Rumiy ijodini semahsul o‘rgangan olim hisoblanadi. Shuningdek, u tasavvufshunoslikka oid asarlarning ingliz tiliga tarjimoni sanalgan. Nikolson London Universitet kollejida fors tilidan o‘qituvchi (1902–1926-yillar) va Adams Kembrij universitetida arabshunos professor (1926–1933) bo‘lib ishlagan. Nikolson ikkita juda muhim kitob yozgan: “Arablar adabiyoti tarixi” (1907) va “Islom tasavvufi” (1914). Nikolsonning asosiy asari Rumiyning 1925–1940 yillarda sakkiz jilda nashr etilgan “Masnaviy”iga bag‘ishlangan asaridir. Olim butun asarga ingliz tilidagi birinchi sharhini yaratdi. Bu asar butun dunyoda Rumiyshunoslik sohasida katta ta’sir ko‘rsatdi. Nikolson Al-Hujviriy yozgan mashhur forscha tasavvufga oid “Kashf ul mahjub” kitobini ingliz tiliga tarjima qilgan. Reynold Nikolson 1945-yil 27-avgustda Angliyada vafot etdi.

ijodining eng iste'dodli tadqiqotchisi va uning asarlarini ingliz tiliga tarjimoni sanalgan. Arab va fors tillarini yaxshi bilish va bu sohada uzoq yillar professor sifatida universitetda ishlashi R. A. Nikolsonga islom tasavvufi va adabiyotini yaxshi tushunish va bu yo'naliishda tadqiqot olib borish imkonini beradi. Olim arab, fors va turk tillaridagi yirik tasavvufga oid matnlarni o'rghanib, ularni ingliz tiliga tarjima qilgan. R. A. Nikolsonga shuxrat keltirgan ikkita muhim asari 1907-yilda yozib tugatgan "Literary History of The Arabs" ("Arablar adabiyoti tarixi") va 1914-yili Londonda nashr etilgan "The Mystics of Islam" ("Islom tasavvufi") asarlaridir.

Nikolsonning yana bir ahamiyatli asari 1925-1940 yillarda sakkiz jilda nashr etilgan Rumiyning "Masnaviy"iga bag'ishlangan asaridir. Bu asarda muallif "Masnaviy"ning forscha birinchi tanqidiy nashrini, ingliz tiliga birinchi to'liq tarjimasini va butun asarga ingliz tilidagi sharhini yaratdi. Bu asar butun dunyoda rumiyshunoslik sohasiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu asarlar ichida bizning tadqiqotimiz uchun eng muhim bo'lgani "The Mystics of Islam"<sup>46</sup> ("Islom tasavvufi") asaridir. Doktor Nikolson bu asarda o'zining yigirma yillik mehnatining natijasini taqdim etadi.

Jumladan, olim bu asarda Islom tasavvufi haqida chuqur tadqiqotlarini ma'lum qilgan bo'lsa ham, bundan tashqari yahudiylit, nasroniylik, buddaviylik va boshqa diniy ta'limotlarda so'fiylik yo'naliishing mavjudligi va uning dindagi o'rni haqida so'z yuritadi. Shuningdek olim turli dinlardagi so'fiylik yo'naliishlarini bir biri bilan solishtirib ko'rishga va ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga harakat qilgan. Nikolson Islom so'fizmi asarida asosan islomning mohiyati to'g'risida, xususan, so'fizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida bergan ma'lumotlari ahamiyatga molikdir. Olim o'z tadqiqotlarida islom so'fizmini yoritishda asosan Jaloliddin Rumiyning ijodidan keng foydalanadi. Nikolson bu asarida garchi Markaziy Osiyolik tasavvuf tariqatlari olimlari to'g'risida bevosida ma'lumot bermasa ham, ularning tariqatlariga ta'sir ko'rsatgan tasavvufning dastlabki namoyondalari oid ma'lumotlar bisyor. Olimning bu ishi G'arb tasavvufshunosligida bu masalaga qo'l urgan dastlabki urunishlardan biri edi.

Fransuz sharqshunosi Lui Massignon<sup>47</sup> tasavvufshunoslik bo'yicha dastlabki tadqiqotlarni olib borgan olimlar sirasiga kiradi. L. Massignon tadqiqotlarida musulmon madaniyati tarixi, tasavvuf va mazhabshunoslik, arab madaniyati, falsafasi va tilshunosligi salmoqli o'rinni egallaydi. Lui Massignonning islomga professional qiziqishi 1904 yilda Marokash va Jazoirga qilgan safari chog'ida paydo bo'lgan. U o'zining ilk ishini Shimoliy Afrika tarixiga bag'ishlagan. L. Massignon Iroqda bo'lgan dastlabki yillardanoq uning e'tiborini 858—922 yillarda yashagan so'fiy tasavvuf

<sup>46</sup>Reynold Alleyne Nicholson. The Mystics of Islam. – London, 1914. – 180 b.

<sup>47</sup>Lui Massignon (1883—1962) — fransuz olimi, sharqshunos, islomshunos va arabshunos. Lui Massignonning islomga professional qiziqishi 1904 yilda Marokash va Jazoirga qilgan safari chog'ida paydo bo'lgan. U o'zining ilk ishini Shimoliy Afrika tarixiga bag'ishlagan. L. Massignon Iroqda bo'lgan dastlabki yillardanoq uning e'tiborini 858—922 yillarda yashagan so'fiy tasavvuf Mansur al-Halloj o'ziga tortadi. Al-Hallojning hayoti, ta'limoti va tasavvufiy dunyoqarashi Massignonda katta taassurot qoldirdi va qisman uning ma'naviy yo'naliishiga hissa qo'shdi. Siyosiy jihatdan u Mahatma Gandhi g'oyalari tarafidori edi.

Mansur al-Halloj o'ziga tortadi. Ashaddiy katolik bo'lgan Lui Massignon o'z jamoasiga islomni Ibrohim dini sifatida tanishtirdi. Uning asarlari katolik cherkovi va musulmonlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan va u ko'plab musulmon mutafakkirlari bilan muloqot qilgan.

Olimning asarlari juda ko'p manbalardan, shu jumladan ilgari noma'lum bo'lgan ko'plab manbalardan foydalanishga asoslangan. U so'fiy Mansur al-Halloj, Muhammad Salmon al-Foriyiyning hamrohi haqida asarlar yozgan. U shuningdek, Ibrohim alayhissalomning yakkaxudolik dinlari uchun birlashtiruvchi siyosining ahamiyati haqidagi tadqiqotlar muallifi<sup>48</sup>. Ammo Massignonning Mansur al-Halloj haqidagi to'rt jildlik asari Edvard Said tomonidan o'zining "Sharqshunoslik" kitobida tanqid qilingan.

Ingliz sharqshunos olimi Jon Spenser Trimming<sup>49</sup> islomshunoslik bo'yicha XX asrning taniqli olimi hisoblanadi. Olim dastlab missionerlik jamiyatida xizmat qilgan va Afrika bo'ylab islomni batafsil o'rghanish uchun ko'p sayohat qilgan. U dastlab arab va nasroniyarning islomga munosabati haqida, keyinroq Afrikadagi islom tarixi va tasavvuf tariqatlari haqida ko'plab asarlar nashr etdi.

Jon Spenser Trimmingning eng mashhur asari "Суфийские ордены в исламе"<sup>50</sup> (Islomdagi tasavvuf tariqatlari) bo'lib, uni olim 1971-yili nashr ettirdi. Olim bu tadqiqotida butun islom olamidagi barcha mintaqalardagi tasavvuf tariqatlariga e'tibor qaratadi. Jumladan, unda Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari allomalari va ularning ilmiy merosiga keng o'rinn berilgan. Shuning uchun ham bu asar joriy tadqiqot uchun juda katta ahamiyatga molikdir.

J. S. Trimmingning ushbu tadqiqoti tasavvufiy tariqatlarning vujudga kelishi, shakllanishi va keyingi taraqqiyoti haqidagi juda qiziqarli va muhim masalaga bag'ishlangan. Muallif bu taqqiqtiga katta hajmdagi manbalarni, asl materiallarni va asarlarni jalg etadi. Shuning uchun bu asar islom olamidagi tasavvufiy tariqatlar to'g'risida ma'lumotnomasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Muallif islomshunoslikda birinchi marta tasavvuf tariqatlarini tarixiy, xronologik va diaxronik jihatlarda ko'rib chiqish va tahlil qilishga harakat qildi. J. S. Trimming islomdagi tasavvuf tariqatlarining tuzilishini, ularning ishlash mexanizmi, tariqatlarning evolyutsiyasi, marosim va an'analari kabi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi. Lekin muallif tasavvuf tariqatlarining diniy, falsafiy va axloqiy jihatlariga e'tibor qaratmaydi. Olimning qayd etishicha, ko'plab mintaqqa xalqlari tasavvuf tariqatlarini "yangi turdag'i din" jarchilari sifatida qabul qilgan.

J. S. Trimming ushbu "Суфийские ордены в исламе" (Islomdagi tasavvuf tariqatlari) tadqiqotida Yusuf al Hamadoniyning xalifalari forsiyzabon Abdulxolik al-

<sup>48</sup> Луи Массиньон. Христианство и ислам. Социокультурные проблемы диалога. - Москва, 1990.

<sup>49</sup> Jon Spenser Trimming 1904-yil 17-noyabr kuni Angliyaning Torn shahrida tug'ilgan. U Afrikadagi islom bo'yicha XX asrning taniqli olimi hisoblanadi. Trimming Birmingem universitetida ijtimoiy fanlarni, Oksford universitetida arab va fors tillarini o'rgangan. Uells teologik kollejida Angliya cherkovi xizmati uchun tarbiyalangan. Shuning uchun ham u dastlab Sudan, Misr va G'arbiy Afrikadagi cherkov missionerlik jamiyatida 1937–53-yillarda xizmat qilgan. U dastlab arab va nasroniyarning islomga munosabati haqida, keyinroq Afrikadagi islom tarixi va tasavvuf tariqatlari haqida ko'plab ma'lumotlar yig'gan. Keyinchalik Bayrutdagi Amerika universiteti tarix kafedrasida mehmon professori bo'lgan va yan uzoq yillarda faoliyat olib borgan. Trimminghan 1987 yilda Lingfildda vafot etdi.

<sup>50</sup> Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с.

G'ijduvoniy va turkiyzabon Ahmad Yassaviy o'z tariqat nasabini aynan Yusuf al Hamadoniya bog'laganligini aytib o'tadi<sup>51</sup>. Olim Ahmad Yassaviyni turkiy dunyodagi tasavvuf tariqati tarixining debochasi sifatida ko'rsatadi. Chunki ungacha bo'lgan tasavvuf tariqatlarining ijodiy faoliyati tili asosan forsiy yoki arabiylardan bo'lgan. Olim ushbu asarida yassaviya tariqatining nasabnomasini ham keltirib o'tadi<sup>52</sup>. J. S. Trimingham yassaviya tariqatining yoyilish ko'lamiga ham e'tibor qaratib, uning nafaqat Markaziy Osiyoga, balki Ozarbayjon, Kichik Osiyo hamda Kashmir hududlariga ham tarqalganligini ta'kidlaydi. Yassaviya tariqatiga mansub bo'lgan Yunus Emro ushbu tariqatning Kichik Osiyoga tarqalishiga katta hissa qo'shgan<sup>53</sup>. Olim Amir Temurning Ahmad Yasaviy shaxsiga hurmati va unga atab qurilgan maqbarani ham eslatib o'tgan.

Bugungi kunda markaziy osiyoshunos, tasavvufshunoslar ichida salmoqli ishlarni amalga oshirayotgan olimlardan biri bu amerikalik Devin Devesdir<sup>54</sup>. O'zining o'nlab yirik maqolalari bilan jahondagi yassaviyshunos olimlar sirasiga kiruvchi, islomshunos olim Devin Deves nafaqat xorijiy olimlar o'rtaida, balki Markaziy Osiyo, jumladan, turkiy dunyo yassaviyshunoslari orasida ham o'zining izchil tadqiqotlari bilan e'tibor qozongan mutaxassisdir.

Devin Deves tasavvufning turli silsila va yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borsa ham Markaziy Osiyodagi tasavvufiy qarashlar tarixi olimning asosiy tadqiqot yo'nalishlari sirasiga kiradi. U yigirmadan ortiq tadqiqotlar muallifi bo'lib, ularning asosiyлари tasavvuf tariqatlari, jumladan yassaviylik va uning an'analari haqida. Olim arab, fors va turkiy qo'lyozma manbalarni chuqur tahlil qila olishi bilan ajralib turadi. Olimga qo'lyozma manbalarini aniq tahlil qilish ushbu manbalar mualliflarining motivlarini tushunishga yordam beradi.

Devin Devesning mana shunday manbalar asosida yaratilgan asarlari ichida bizning tadqiqotimiz uchun dolzarb bo'lган asari "Studies on Sufism in Central Asia"<sup>55</sup> (Markaziy Osiyo tasavvufini o'rganish) ayniqsa qimmatlidir. Devin Devesning ushbu asarida Markaziy Osiyodagi xalqlarining tasavvuf tarixiga oid 1988-2005-yillarda olib borgan tadqiqotlarning yig'indisi sifatida nashr etilgan o'n ikkita tadqiqoti mavjud. Bularidan beshtasi yassaviya tariqatini o'rganishga (III, VII, IX, X, XII qismlar) qaratilgan.

<sup>51</sup> Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с. Сс. 54-55.

<sup>52</sup> Illova qismida.

<sup>53</sup> Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с. Сс. 55-56.

<sup>54</sup> Devin Dewes 1956-yilda AQSHning Indiana Polis shahrida tug'ilgan. 1977-yili Indiana universitetini "Tarix va dinlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha tamomlagan. 1985-yili doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Indiana shtatidagi Bloomington universitetining islom va Markaziy Yevroosiy tadqiqotlari professori. U butun dunyodan mashaqqat bilan to'plagan fors, arab va turkiy qo'lyozma manbalardan foydalangan holda Markaziy Osiyo dini va tarixiga oid yirik tadqiqotlarni nashr etdi. Olim 2008-yilgacha Indiana universiteti qoshidagi Denis Sinor nomidagi Ichki Osiyo tadqiqotlari tadqiqot instituti direktori lavozimida ishlagan. Uning eng mashhur asari 1994 yilda nashr etilgan "Islamization and Native Religion in the Golden Horde: Baba Tükles and Conversion to Islam in Historical and Epic Tradition" (Oltin Ordada islomlashirish va mahalliy din: Baba Tukles va Islomga kirish tarixi va epik an'analari"). Ushbu kitobda O'zbekistonning XIV asrda islom dinini qabul qilganligi hikoya qiladi. Shuningdek, u Ichki Osiyodagi islomgacha bo'lgan diniy hayotni, islom va diniy e'tiqodning shaxsni shakllantirishdagi rolini o'rganadi. Asar 1995 yilda Albert Xurani kitob mukofotiga sazovor bo'ldi va ko'plab olimlar tomonidan e'torof etildi. Devin Dewes Markaziy Osiyodagi tasavvufga oid mintaqadagi yirik so'fiy guruhlaming ijtimoiy va ma'naviy tarixidagi muhim o'zgarishlarni aniqlash maqsadida ilgari o'rganilmagan manbalarni tahlil qiluvchi 12 ta tadqiqotni tayyorlaydi.

<sup>55</sup> Devin DeWeese . Studies on Sufism in Central Asia. – London and New York, 2012. - 57 p.

Shu narsani alohida ta'kidlab aytib o'tish lozimki, olim o'z tadqiqotlarida juda ko'plab Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomalari va ularning ilmiy merosiga bag'ishlangan nodir manbalarga murojaat qilgan. Bu esa ushbu tadqiqotning ahamiyatini yanada oshiradi.

Olimning "Mashoyixi turk va xojagon: yassaviylik va naqshbandiylik an'analar o'rtasidagi bog'liqlikni qayta anglash"<sup>56</sup> maqolasi rus tilida "Суфизм в Центральной Азии" to'plamida prof. Yu. Bregel taxriri ostida 2001-yilda nashr qilingan. U yassaviylik va naqshbandiylik o'rtasidagi ilmiy- amaliy aloqalarga, murid-murshid munosabatlariga, tariqat vakillari o'rtasidagi raqobatchilikka, zikr tushish jarayonidagi holatlar haqida o'z qarashlarini bildiradi. U bugungi kunda ham saqlanib qolgan yassaviylik an'analar, ularning o'zgargan shakllari va o'zidan keyin vujudga kelgan tariqatlarga botiniy munosabati orqali ta'sir etayotgan ushbu tariqatga daliliy fikrlar bilan munosabat bildiradi.

Devin Devesning "The Yasavi Order Persian Hagiography in Seventeenth-Century Central Asia"<sup>57</sup> ("Он yettinchi asrda Markaziy Osiyo forsiy shajarasida Yassaviylik tariqati") nomli maqolasida yassaviylik tariqatining so'ngi o'rta asrlardagi holatini yoritishga harakat qiladi. Bu tadqiqotning natijasidan shuni anglash mumkinki, yassaviylik tariqatiga ergashuvchilar bu davrga kelib bir muncha kamayib qolganini sezish qiyin emas.

Olimning yana bir "Yasavi Shayhs in the Timurid Era: Notes on the Social and Political Role of Communal sufi Affiliations in the XIVth and XVth centuries"<sup>58</sup> ("Temuriylar davridagi Yassaviy shayxlari: XIV-XV asrlardagi jamoaviy so'fiy aloqalarining ijtimoiy va siyosiy roliga sharhlar") nomli maqolasida esa avvalo temuriylar sulolasining asoschisi Amir Temurning Ahmad Yassaviy shaxsiga bo'lган munosabati yoritiladi. Bunda Amir Temurning Ahmad Yassaviy atab qabri ustiga mahobatli maqbara qurdirgani eslatiladi. Bundan tashqari, temuriy hukmdorlarning yassaviylik tariqati izdoshlariga chuqur hurmatda bo'lGANI ta'kidlanadi.

"A Neglected Source on Central Asian History: The XVIth Century Yasavi hagiography. Manoqib al-Akhyar"<sup>59</sup> ("Markaziy Osiyo tarixida e'tibordan chetda qolgan bir manba: XVII asrda Yassaviy shajarasi: "Manoqib-ul-ahyor"). Ushbu asar o'zining ijtimoiy tarixdagi xarakterli ko'rinishi bilan tarix va xronikalarda kamdan kam uchraydigan shajaraviy manba sifatida diqqatga sazovordir. Har holda, bu yassaviylik tariqatiga noma'lum bo'lган nodir manba sifatida qimmatlidir. Unda XVI asrda Markaziy Osiyoda diniy hududning kengayishi, yassaviylik g'oyalarining o'sib borishi o'z aksini topadi va bu tariqat qonuniyatları keng ko'lamda ochib beriladi.

<sup>56</sup> Devin DeWeese. The Mashaikh-i Turk and the Khojagan: Rethinking the Links between the Yasavi and Naqshbandi Sufi Traditions. JIS 7/2 (1996),

<sup>57</sup> Devin DeWeese. The Yasavi Order Persian Hagiography in Seventeenth-Century Central Asia. – Oxford, Pp. 389-414.

<sup>58</sup> Devin DeWeese. Yasavi Sayhs in the Timurid era: notes on the social and political role of communal Sufi affiliations in the 14th and 15th centuries. Deweese, Devin. (2012) - In: Deweese, Studies on Sufism in Central Asia Pt. VII p. 173-188.

<sup>59</sup> Devin DeWeese. A Neglected Source on Central Asian History: The XVIth Century Yasavi hagiography. Manoqib al-Akhyar. Essays on Uzbek History, Culture, and Language. Edited by Bakhtiyor A. Nazarov and Denis Sinor with Devin DeWeese, Technical editor. Indiana University Research Institute for Inner Asian Studies. Bloomington, Indiana. Deweese, Devin. (2012) - In: Deweese, Studies on Sufism in Central Asia Pt. XI p. 1-43

Fransuz tasavvufshunosi Terri Zarkon<sup>60</sup> o'zining o'nlab jiddiy tadqiqotlari bilan bugungi tasavvufshunoslarga ma'lum. U ayrim tasavvuf tariqatlarining dunyo bo'ylab yoyilishi va yangi-yangi silsilalar hosil qilishi to'g'risida ham izlanishlar olib borgan. U yassaviylik va naqshbandiylikning Hindistonda tarqalishiga doir "Turkish Sufism in India: The Case of the Yasawiyya"<sup>61</sup> (Hindistonda turkiy tasavvuf: yassaviylik hodisasi) deb nomlanuvchi maqolasi allaqachon xorij tasavvufshunoslariga ma'lum bo'lgan edi. Shuningdek, uning Hindistondagi chishtiylik tariqatiga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan yassaviylik va qalandariylik tariqati vakillarining ta'siri bo'lganligi to'g'risida ma'lumot beruvchi "Central Asian Influence on the Early Development of the Chishtiyya sufi Order in India"<sup>62</sup> (Hindistondagi so'fiy chishtiylik tariqatining dastlabki taraqqiy etish davrida Markaziy Osiyoning ta'siri) deb ataluvchi katta maqolasi diqqatga sazovordir. Ushbu maqolada yassaviylikka oid qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, olimning "Sufism from Central Asia among the Tiberans in the XVI-XVII Centuries"<sup>63</sup> ("XVI-XVII asrlarda tibetliklar orasidagi Markaziy Osiyo tasavvufi") hamda "The Sufi Orders in Northern Central Asia"<sup>64</sup> ("Markaziy Osiyo shimolidagi tasavvuf tariqatlari") kabi tadqiqotlari bugungi tasavvufshunoslarning e'tiborini tortmasdan qolmaydi.

Uning tadqiqotlarida Markaziy Osiyodagi yassaviylik tariqatiga, uning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyga jadidlar va sobiq ittifoq vakillarining va nihoyat mustaqillikdan keyingi davrdagi munosabat masalalari ham o'rinn olgan. Ayni masalalar "Ahmad Yasawi heros des nouvelles republiques centraasiatiques"<sup>65</sup> (Ahmad Yassaviy - yangi Markaziy Osiyo respublikalarining qahramoni) deb nomlanuvchi yirik maqolasida o'z aksini topgan.

Yassaviy va bevosita yassaviyshunoslikka daxldor tadqiqotlarning soni yildan yilga chet ellarda ham ortib bormoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Arberry A.J. Sufism. – London: 1950.
2. Devin DeWeese . Studies on Sufism in Central Asia. – London and New York, 2012. 57 p.
3. Devin DeWeese. The Yasavi Order Persian Hagiography in Seventeenth-Century Central Asia. – Oxford, Pp. 389-414.

<sup>60</sup> Elektron manba: <https://www.researchgate.net/profile/Zarcone-Thierry>

<sup>61</sup> Zarcone T. Turkish Sufism in India: The Case of the Yasawiyya. In, Confluence of Cultures. French Contributions to Indo-Persian Studies. Pp.82-92. Monohar. Centre for Human Sciences, New Delhi. 1995

<sup>62</sup> Zarcone T. Central Asian Influence on the Early Development of the Chishtiyya sufi Order in India. The Making of Indo Persian Culture. Indian and French Studies. Pp. 99-116. Monohar. Centre DE Sciences Humaines. 2000.

<sup>63</sup> Zarcone T. Sufism from Central Asia among the Tiberans in the XVI-XVII Centuries. The Tibet Journal, Library of Tiberans Works and Archives, Dharamsala, India, 1995, pp. 96-114.

<sup>64</sup> Zarcone T. The Sufi Orders in Northern Central Asia. dans History of Civilizations of Central Asia, Vol. V. Development in Contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century, Paris, UNESCO Publishing, 2003, pp. 771-780.

<sup>65</sup> Zarcone T. Ahmad Yasawi heros des nouvelles republiques centraasiatiques. C.N.R.S., – Paris: 2000. Pp. 297-321.

4. Devin DeWeese. Yasavi Sayhs in the Timurid era: notes on the social and political role of communal Sufi affiliations in the 14th and 15th centuries. Deweese, Devin. (2012) - In: Deweese, Studies on Sufism in Central Asia Pt. VII p. 173-188.
5. Крачковский И. Ю., Бартольд В. В., Ольденбург С. Ф. Записка об учёных трудах Луи Массиньона. // «Известия Российской академии наук. VI серия». – Тошкент: — 1924. — С. 18. Нельдеке, Теодор // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефронова : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
6. Тримингэм Дж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.А. Ставиской; под ред. О.А. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция Восточной литературы, 1989. – 328 с.
7. Zarcone T. Turkish Sufism in India: The Case of the Yasawiyya. In, Confluence of Cultures. French Contributions to Indo-Persian Studies. Pp.82-92. Monohar. Centre for Human Sciences, New Delhi. 1995
8. Reynold Alleyne Nicholson. The Mystics of Islam. – London, 1914. – 180 b.